

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM  
METODIKALARI KAFEDRASI**

**“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA  
XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI”**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

**“СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ  
НАВЫКОВ XXI ВЕКА В ДОШКОЛЬНОМ И  
НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ”**

Материалы Республиканской научно-практической  
конференции

**“MODERN DIRECTIONS FOR DEVELOPING 21ST  
CENTURY SKILLS IN PRESCHOOL AND PRIMARY  
EDUCATION”**

Materials of the Republican Scientific and Practical Conference

**BUXORO - 2024-yil, 20-noyabr**

## **Ilmiy konferensiya dasturiy qo‘mitasi**

- A.A. Xamidov – Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, rais
- M.S. Narziyeva – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası mudiri, a‘zo
- N.X. Aslanova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası v.b. dotsenti, p.f.b.f.d (PhD), a‘zo
- D.B. Xamroyeva - Maktabgacha ta‘limni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
- G.Sh. Karimova - Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi
- S.S. Aslonova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi, kotib

## **Ilmiy konferensiya tashkiliy qo‘mitasi**

- M.S. Narziyeva – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası mudiri, rais
- N.X. Aslanova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası v.b. dotsenti, p.f.b.f.d (PhD), a‘zo
- Sh.S. Murodova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo
- G.A. Ikromova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo
- D.B. Hamroyeva – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo
- G.Sh. Karimova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo
- S.S. Aslonova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi, kotib
- F.I. Raxmonova - Maktabgacha ta‘limni muvofiqlashtirish bo‘limi metodisti, a‘zo

### **Mas‘ul muharrir**

**N.X. Aslanova** p.f.b.f.d. (PhD), v.b. dotsent

### **Taqrizchilar**

Sh.X. Samiyeva, pedagogika fanlari doktori (Dsc)  
B.Ya. Axmedov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

# **BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA BUYUK USTOZ SADRIDDIN AYNIYNING “TAHZIB US-SIBYON” ASARLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Saparova Shahlo Ramazonovna**

*Buxoro davlat universiteti, San’atshunoslik va Pedagogika fakulteti,  
Pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asrning buyuk jadid ma’rifatparvari va pedagog olim Sadridin Ayniyning boshlang‘ich maktablar uchun yozgan “Tahzib us-sibyon” o‘qish darsligi yoritilgan. Ushbu darsligini Ayniy tojik tilda yozgan bo‘lib, bu darslik ikki marta nashr qilingan va jadid maktablarida o‘qitilgan. Sadridin Ayniyning o‘zi ham bu darslikni o‘qitish jarayonida foydalangan. Bugun bolalar adabiyotini o‘qitishda bu asar o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki Ustoz Ayniyning barcha asarlari yosh avlodni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

**Key words:** “Tahzib us-sibyon” textbook, story about a boy named Tosh, “Table” method.

**Аннотация:** В данной статье описывается учебник «Тahзиб ус-сибён», написанный Садриддином Айни, великим современным просветителем и педагогом XX века, для начальных школ. Айний написал этот учебник на таджикском языке, он дважды издавался и преподается в современных школах. Сам Садриддин Айний использовал этот учебник в процессе обучения. Сегодня это произведение не потеряло своей актуальности в обучении детской литературе, ведь все произведения Устоza Айни воспитывают подрастающее поколение в духе патриотизма.

**Ключевые слова:** учебник «Тahзиб ус-сибён», рассказ о мальчике по имени Тош, «Табличный» метод.

**Annotation:** This article describes the textbook “Tahzib us-sibyon” written by Sadridin Ayniy, a great modern enlightener and pedagogue of the 20th century, for primary schools. Ayniy wrote this textbook in the Tajik language, it was published twice and taught in modern schools. Sadridin Ayniy himself used this textbook in the process of teaching. Today, this work has not lost its relevance in



teaching children's literature, because all the works of Ustoz Ayniy educate the young generation in the spirit of patriotism.

**Kalit so'zlar:** "Tahzib us-sibyon" darsligi, Tosh ismli bola haqida hikoya, "Jadval" metodi.

O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "Ilmu ma'rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik bilan nom qozongan xalq" nomli ma'ruzasida: "Bu ko'hna yurtida tug'ulib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy, singari ko'plab ma'rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag'ishlab kelmoqda" –deb ta'kidlab o'tganlar[4;4].

Sadridin Ayniy XX asrning buyuk pedagogi, jadid ma'rifatparvari, ilk darsliklarning muallifidirki, uning darsliklari bugungi kun darsliklarning tayanchi va ilk namunasi. Buxoroning tarixi va adabiy muhitini tasavvur qilish uchun albatta, Sadridin Ayniyning asarlarini o'rganish lozim. Sadridin Ayniy ham jadid, ham jadid ijodkorlarining ustozidir. Ayniy yozgan barcha asarlarida o'zi ko'rgan, boshidan o'tkazgan voqea-hodisalarni hikoya qiladi. Ustoz Ayniy ta'lim va tarbiya masalasiga juda katta e'tibor qaratgan. Xalqni, millatimizni ma'rifatli bo'lishiga yangi usuldagi maktablarning o'rni beqiyosligini chuqur anglagan ustod Ayniy jadid maktablarini ochib, shu maktablar uchun darsliklar yaratadi. Bu asarlar bolalar adabiyotini o'qitishda ajoyib namunadir. "Tahzib us-sibyon" bu darsliklarning dastlabkisi va bugungi boshlang'ich sinf o'qish darsliklari bilan hamohangdir.

Mashhur yozuvchi va pedagog Sadridin Ayniy «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») o'qish darsligini tuzgan bo'lib, u ikki marta ( 1909; 1917-yillarda nashr etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik xarakterda ega bo'lib, o'quv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular mazmuni o'quvchilar yoshiga mos. O'sha zamon sharoiti va talablariga ko'ra, kitobda diniy ma'lumotlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarni rostgo'y va vijdonli bo'lishga targ'ib qiladi. Bolaning shakllanishida oila tarbiyasi muhim o'rin tutadi.

Muallif bir hikoyada namuna usulidan foydalanib, o'quvchilar hayotida ro'y bergan voqea misolida o'quvchilarni halol bo'lishga undash bilan birga, bunda oila tarbiyasi, onaning namunasi katta o'rin tutishini ko'rsatib beradi. Quyida ushbu hikoyadan parcha keltiramiz: «Bir kuni Tosh ismli bola maktabdan qaytayotganida o'tkinchi kishi qopchig'ini tushirganini ko'rdi, uni olib uyiga keldi va onasiga ko'rsatdi. Onasi achchiqlanib aytdi: «Buning egasini tezroq top va unga qopchiqni qaytar, aks holda o'rtoqlaring orasida seni o'g'ri deb e'lon qilaman». Tosh qopchiq egasini topib, uni puli bilan qaytarib berdi». XX asr boshida darslik yaratgan pedagoglar, ziyolilar darsliklardagi matnlarni o'z hayotiy tajribalaridan olganlar. Hikoya, rivoyat singari she'r va to'rtliklar ham bitib, darsliklarga kiritganlar. Jumladan, Sadridin Ayniy ham «Tahzib us-sibyon» darsligining «Aqli bola» bobida bolalarni sahiylik ruhida tarbiyalovchi she'r yozadi[4;14].

Muallif «Tarbiya ko'rgan bola», «Yaxshi, odobli bola» boblarida yoshlikdan o'quvchilarda madaniy xulqni qaror toptirish, har bir o'quvchining tozalikka rioya qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari, darslikda axloqiy tarbiya, otanani hurmatlash to'g'risida fikr yuritilib, ushbu yo'nalishda yuksak badiiy saviyaga ega bo'lgan savol-javob shaklidagi she'r taqdim etilgan. S.Ayniy oilada mehr-oqibat yuqori darajada bo'lishini xohlaydi. Darslikda insonparvarlik ruhidagi hikoyalar bilan bir qatorda, estetik tarbiya va o'yin faoliyati bilan bog'liq qisqa-qisqa matnlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» keng qamrovli darslik hisoblanib, unda barcha fanlar, ularning inson hayotidagi o'rni beqiyosligi haqida fikr bayon qilinadi. Muallif har bir bola o'zi o'qish va yozishni bilishi shart deb hisoblaydi. Darslikda bolalar hayoti, tabiat, maktab, uy hayvonlari va parrandalarga oid bolalarning yoshiga mos qiziqarli hikoyalar mavjud. Sadridin Ayniy kitobda o'qituvchilar uchun metodik yo'l-yo'riqlar ham taqdim etgan bo'lib, darslikning ayrim boblari o'qituvchi va uning vazifalariga bag'ishlangan. S.Ayniyning «Tahzib us-sibyon» darsligidan tashqari, «Yoshlar tarbiyasi» darsligini 1909-yilda chop etganligi ma'lum[4;15].

“Tahzib us-sibyon” asarini boshlang'ich sinf o'qish darslarida va OTMLarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga bolalar adabiyotini



o‘qitishda “Jadval” metodidan foydalanilsa, o‘quvchi-talabalarning xotirasida yaxshi saqlanib, ularning kommunikativlik, kreativlik kabi tayanch kompetensiyalarini shakllantiradi.

“Jadval” metodi o‘quvchi (talaba)larda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo‘llashda talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og‘zaki bayon yoki yozma matn ko‘rinishida emas, balki asosiy g‘oya, tayanch tushuncha va muhim jihatlarini jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi[10].

S.Ayniy “Tahzib us-sibyon” (pok bola) [9] 1-nashri:1910-yil iyul, Samarqand; 2-nashri:1917-yil noyabr-dekabr, Samarqand (farqi:Muhammad Yusuf oilasi haqidagi matnlar)			
Peshguftor (so‘zboshi)	Ixtor (Taklif)	Bachai tarbiyatdida (tarbiyali bola) <i>Hikoyat (Yo‘ldosh yolg‘onchi bola bo‘lib maktabdan haydaladi, oxirida hammol va mardikor bo‘ladi.</i>	Bachai boodob (Odobli bola)
Bachai boodob (Odobli bola)	Padaru modar (ota- ona) <i>Savol (topishmoq) Javob: Volidai mehrison; Savol. Javob: padari buzrugvor</i>	Padaru modar (ota- ona)	Ustoz-muallim
Maktab  <i>Ruboiy. Savolu-javob.</i>	Ahmadjoni Sohibmarhamat (Marhamat egasi Ahmadjon) ( <i>Sobir ismli bola bexosdan qalamini sindirib qo‘yadi. Ahmadjon 5 ta qalamini chiqarib, Sobirga istaganini olishini aytadi.</i>	Hikoyat dar qoidai maktab (Maktab haqida hikoya)	Va hokazo...

1-jadval. Sadridin Ayniyning “Tahzib us-sibyon” asaridan.

Sadriiddin Ayniy XX asrning buyuk pedagogi va jadid ma'rifatparvari sifatida o'z asarlari va darsliklari orqali nafaqat Buxoro, balki butun O'rta Osiyo xalqlarining ma'rifatini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Uning «Tahzib us-sibyon» darsligi nafaqat boshlang'ich sinf uchun yaratilgan birinchi darsliklardan biri bo'lib, balki o'quvchilarga axloqiy, madaniy va ilmiy bilimlarni berishdagi samaradorligi bilan ham tarixiy ahamiyatga ega. Ayniy o'z asarlarini hayotiy tajribalariga asoslanib yaratgan bo'lib, unda bolalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lgan voqealar, hikoyalar va she'rlar mavjud. U, ayniqsa, bolalarda rostgo'ylik, vijdonlilik, tozalikka e'tibor, oilada mehr-oqibatni shakllantirish kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Darslikda bolalar uchun yengil va sodda tilda yozilgan materiallar bilan birga, o'qituvchilarga metodik yo'l-yo'riqlar ham taqdim etilgan. Ayniy «Tahzib us-sibyon»da faqat axloqiy tarbiya emas, balki tabiiy fanlar, maktab va o'qishning ahamiyati haqida ham so'z yuritgan. Ushbu darslik pedagogik faoliyatda yangi usullarni tatbiq etish, bolalar tarbiyasida ilmiy asoslangan yondashuvni ilgari surish, shuningdek, milliy tarbiya va ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan bir muhim qadamdir. Ayniyning bu asari, nafaqat zamonasining ta'lim tizimi uchun, balki bugungi kunimizda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
2. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
3. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249- 7137.2020
4. Raximov Z. "Jadid pedagogikasi" O'quv-uslubiy majmua. Shahrizabz-2022.



<b>Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li</b> ONA TILI DARSLARIDA KONSTRUKTOR MASHQLARNING MUHIM XUSUSIYATLARI.....	354
<b>Oripova Mavluda Qodirovna</b> "4K" MODEL - ZAMONAVIY TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV.....	361
<b>Xolmo'minova Bahora Abdusalolovna</b> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	366
<b>Karimova Gulshod Shavkatovna</b> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNING RIVOJLANISHIDA O'YINNING ROLI.....	369
<b>Yadgorova Dildora Ibodullaevna</b> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA TANQIDIY, IJODKORLIK, MULOQOT VA HAMKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI.....	373
<b>Barotova Nargiza Xudoyberdiyevna</b> TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV METODLARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI.....	376
<b>Ag'amurodov Sarvar Istamovich</b> O'SMIRLARDA O'QUV MOTIVLARI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI.....	381
<b>Muminjonova Muhayyo G'ulomovna</b> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY O'QUV MATERIALLARI MAZMUNINI MODELLASHTIRISH.....	386
<b>Aslanova Sanobar Sulaymanovna</b> MURAKKAB MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH VA YECHIMLAR TOPISHNING SAMARALI YO'LLARI.....	393
<b>Axmedova Shoiraxon Bilalxanovna</b> INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA 4-K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI ASOSIDA PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK YECHIMLARI.....	397
<b>Hamroyeva Muxlisa Farxod qizi</b> INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI.....	407
<b>Sharipov Ilhom Husenovich, Tosheva Dilnora Zohid qizi</b> KISLOTALAR MAVZUSINI O'RGATISHDA PISA TESTLARI USULIDAN FOYDALANISH.....	410
<b>Ergasheva Feruzabonu Baxriddinovna</b> O'QUVCHILARNING IQTISODIY BILIMDONLIGINI RIVOJLANTRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	415
<b>Dadaboeva Zulfiya Bahriddinovna, Abdurahimova Iqbola Qodirjonovna</b> UZLUKSIZ TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI, O'QUV JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. MUAMMO VA ISTIQBOLLAR.....	424
<b>Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MAVJUD AHVOLI.....	428
<b>Raximberganova Munojat Muzaffar qizi</b> MAKTABGACHA 4-5 YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOY MOSLASHTIRISHDA IJODIY O'YINLARDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	433
<b>Saparova Shahlo Ramazonovna</b> BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDA BUYUK USTOZ SADRIDDIN AYNIYNING "TAHZIB US-SIBYON" ASARLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	437





# SERTIFIKAT



*Saparova Shahlo Ramazonovna*

**Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazida o'tkazilgan**

**"MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XXI ASR  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY  
YO'NALISHLARI"**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyada maqolasi bilan ishtiroki uchun**



20-NOYABR, 2024-YIL

Qayd raqami: \_\_\_\_\_

